
TARG'IBOT TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA

35-umumiy o'rta ta'lim maktabining kutubxonasida Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasi, Namuna mahalla fuqarolar yig'ini va maktab jamoasi bilan hamkorlikda targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Ushbu tadbir o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni kitobga va ijodga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida tashkil etildi.



Tadbir davomida yurtimizda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalariga berilayotgan e'tibor, shuningdek, yoshlarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularga yaratilayotgan qulay shart va sharoit haqida so'z bordi.

Maktabning ijodkor o'quvchilari tadbir ishtirokchilariga o'zlari yozgan she'rlardan o'qib berdilar. Tadbir so'ngida maktabning kitobxon va ijodkor o'quvchilariga tuman hokimining esdalik sovg'alari topshirildi.

N.Otabekov,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tuman bo'linmasi rahbari.

2021-01-20 16:05:00